

2-TOM, 5-SON

HUDUDLARDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH  
YO'LLARI

**Maxmudov Jasurbek Ergashevich**

Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Raqamli texnologiyalar va buxgalteriya hisobi kafedrasida assistenti

**Annotatsiya:** Maqalada innovatsion faoliyatga yunaltilgan samaradorligiga investitsiyalarni yaratib berilgan. Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda xorij tajribasini o'rganish orqali moliya maqsadlarini samarali usulari mexanizmlarini izlap topish bilan bog'liq bir qator muammolar o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsion siyosat, investitsiya loyihalari, investitsiya faoliyati, innovatsion infratuzilma.

**Аннотация:** Статья посвящена инвестированию в эффективность, ориентированную на инновации. Исследован ряд проблем, связанных с поиском эффективных механизмов достижения финансовых целей путем изучения зарубежного опыта осуществления инновационной деятельности.

**Ключевые слова:** инвестиционная политика, инвестиционные проекты, инвестиционная деятельность, инновационная инфраструктура.

**Abstrakt:** The article is devoted to investing in innovation-oriented efficiency. A number of problems related to the search for effective mechanisms for achieving financial goals by studying foreign experience in the implementation of innovative activities have been studied.

**Keywords:** investment policy, investment projects, investment activity, innovation infrastructure.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida takidlaganlaridek "mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollar, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari haqida alohida to'xtalib o'tdilar". Bugungi kunda mamlakatimizda hozirga qadar moliya bozori etarlicha rivojlanmaganligi sababli, loyihaviy moliyalash ko'pchilik hollarda bank kreditlashi shaklida amalga oshirilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki dunyoda keng tarqalgan boshqa usullar qimmatli qog'ozlar chiqarish, investitsiya fondlari tashkil qilish, bank konsorsiumlari, nafaqa jamg'armalari,



## 2-TOM, 5-SON

lizing kompaniyalari va hokazolardan foydalanish orqali innovatsion faoliyatga yo'naltiriladigan investitsiyalar samaradorligini oshirish mumkin.

O'zbekistonda loyihaviy moliyalash korxonalarining, ayniqsa, kichik biznes korxonalarining o'z mablag'lari etishmasligi tufayli olg'a siljmayapti. Eksportga yo'naltirilgan loyihalar ustuvor deb topilganligi sababli, loyihalarning katta qismi raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish imkonini beradigan zamonaviy yuqori unumli texnologiyalar va uskunalarni joriy etish yo'li bilan amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda yangi loyihalarni amalga oshirish uchun asosan tijorat banklarining kreditlari jalb qilinmoqda. Bunda uskunaning pirovard qiymati uskunaning hisoblanib chiqilgan narxi (etkazib berish va montaj qilishni ham hisobga olgan holda) kredit liniyalari, eksport sug'urta mukofotining qiymati, kredit uchun to'lanadigan foizlar, mahsulot etkazib beruvchi firmalar xizmatchilarning qiymati, investitsiya davridagi foizlar va bank komissiyalari, shuningdek uskunalarini sug'urtalash qiymatidan tarkib topgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, investitsiya siyosatining makrodarajadagi bosh maqsadi kayta ishlab chikarish jarayonlarini takomillashtirish, mamlakat moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash, uning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, umumiy iqtisodiy taraqqiyotiga erishishga (yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishi, yangi ish joylari miqdorini ko'paytirish kiritilgan mablag'lar samaradorligini oshirish)ga qaratilgan investitsiya jarayonlarining davlat tomonidan tartibga solinishi va qo'llab-quvvatlanishining ta'sirchan tizimini yaratishdir. Mikrodarajada u xo'jalik sub'ektlari tomonidan fonda (daromad) olinishi maqsadiga bo'ysundirilgan.

Mazkur maqsadga muvofiq davlat investitsiya siyosatining asosiy vazifalarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

- investitsiya faoliyatini jonlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirishga qaratilgan maqsadli yo'naltirilgan siyosat yuritish;
- mahalliy mahsulotlarning jaxon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash va mamlakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida ustuvor tarmoqlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;
- investitsiya loyixalarining tanlov asosida davlat tomonidan moliyalashtirilishini amalga oshirish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadida «ochiq» iqtisodiyot siyosatini olib borish;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- qurilish materiallari va pudrat ishlari bozorini rivojlantirish.



## 2-TOM, 5-SON

Investitsiya muhiti - bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmuidan iborat. Investitsiya muhiti tabiiy shart-sharoitlar, foydali qazilmalar zaxiralari, ishchi kuchi malakasi va o'rtacha ish xaqi darajasi, iqtisodiy kon'yunktura holati, ichki bozor sig'imi, tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning yaratilganligi kabi omillar orqali belgilanadi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan bo'len qulay investitsiya muhitini yaratish davlatimiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining rivojlantirish harakatlar strategiyasida ta'kidlanganidek ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borishga alohida e'tibor qaratilgan. Korxonalar ishlab chiqarishning barcha sohalarida faoliyatni amalga oshirishda samaradorlik muhim ahamiyatga ega ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Samaradorlik bu ma'lum faoliyat uchun qilingan xarajatlarning qay darajada samara keltirishini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Innovatsion faoliyatga ham investitsiya jalb qilingandan keyin albatta uning samaradorlik darajasini nazorat qilib borish va samaradorlikni oshirishga alohida e'tibor berish kerak.

Innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini oshirishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- investitsiyaning samaradorlik tahlilini o'tkazish;
- amalga oshirilayotgan innovatsion loyihaning amalga oshish davrini tahlil qilish;
- xorij tajribasini o'rganish va iqtisodiyotimizga to'g'ri keladigan tomonlardan foydalanish;
- innovatsion faoliyatni moliyalashtirishga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish.

Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda xorij tajribasini o'rganish va iqtisodiyotimizga to'g'ri keladigan tomonlaridan foydalanish ham samarali yo'llardan biri hisoblanadi. Hozirda rivojlangan mamlakatlar innovatsion faoliyatning uch modeli mavjud. Ular quyidagilar:

- Fanda etakchilik qilishda ilmiy ishlab chiqarish siklining barcha bosqichlarini qamrab oladigan, odatda mudofaa sohasida yirik ulushga ega bo'lgan ilmiy-innovatsion potensialga ega yirik ko'lamdagi maqsadli loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan (AQSH, Angliya, Fransiya);



## 2-TOM, 5-SON

- Yangiliklarni keng tarqatish, qulay innovatsion muhitni vujudga keltirish, iqtisodiyotning butun tuzilmasini ratsionalizatsiya qilishga yo'naltirilgan (Germaniya, SHvetsiya, SHvetsariya);

- Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, jahon ilmiy-texnik taraqqiyoti yutuqlarini qabul qila olish qobiliyatini ta'minlash, fan va texnologiyalar sohasida turli sektorlarning harakatlarini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan (YAponiya, Janubiy Koreya)

Oxirgi yillarda bu borada mamlakatimizda ham ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar qisqa muddat ichida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash va shu asosda ichki hamda tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ancha kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Milliy iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish, uning ilmiy salohiyatini yanada yuksaltirishda ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalashtirish muhim omillardan biri hisoblanadi. SHu ma'noda O'zbekistonda so'nggi yillarda ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligini oshirish, respublikaning real sektorida innovatsion faoliyatni yuksaltirish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishda fanning rolini kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonunda O'zbekiston Respublikasi xududida chet el investorlari tomonidan qonun xujjatlari zid bo'lgan tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari ob'ektlariga aksariyat holda (daromad) olish maqsadida kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlarining jami turlari, shu jumladan, intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek chet el investitsiyalarida har qanday daromad chet el investitsiyalariga hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Makhmudov, J. E. (2023). THE CURRENT SITUATION AND ANALYSIS OF LENDING TO SMALL BUSINESS ENTITIES.
2. Ergashevich, M. J. (2021, August). Current Issues of Improving Financial Management Methods in Small Businesses (Case-Study of Samarkand Region). In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 11-15).
3. Ergashevich, M. J. (2022). INCREASING BUSINESS ACTIVITY IN THE SPHERE OF TOURISM SERVICES. *World Economics and Finance Bulletin*, 7, 104-106.
4. Ergashevich, M. J., & Utkirovich, K. O. (2022). The Main Directions for the Development of Household Services of Rural Areas. *International Journal on Integrated Education*, 5(2), 223-225.
5. Kamanov, B. M., & Kodirov, O. G. (2023). Features amplifying properties of a field effect transistor in the circuit with dynamic load. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 93-98.
6. Oblomurodov, E. (2023). METHODOLOGY OF STUDYING GEOMETRIC QUANTITIES. CALCULATION OF SURFACES. *International Bulletin of Engineering and Technology*, 3(6), 121-124.

